

AXBOROT XURUJLARI SHAROITIDA YOSHLAR IJTIMOY ONGINI SHAKLLANTIRISHDA OILA INSTITUTI VA GENDER STEREOTIPLARINING PSIXOLOGIK JIHLARI.

ADPI. Pedagogika Fakulteti o‘qituvchisi
Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna
Boshlang‘ich Ta’lim yo’nalishi talabasi
Bahromjonova Gulchiroy Bakirjon qizi.
bahromjonovagulchiroy2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19411513>

Annotatsiya: Maqolada axborot xurujlari sharoitida yoshlar ijtimoiy ongini shakllantirishda oila instituti va gender stereotiplarining ta’siri tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot makonidagi turli g‘oyaviy va informatsion ta’sirlar yoshlarning dunyoqarashi va ijtimoiy ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, shu bois ularning ma’naviy-axloqiy immunitetini shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Maqolada oilaviy muhit, ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi va psixologik munosabatlar, shuningdek, gender stereotiplarining farzand tarbiyasidagi roli va ijtimoiy ongga ta’siri yoritiladi. Oilaning psixologik muhitini mustahkamlash yoshlarni salbiy axborot ta’siridan himoya qilishda muhim omil ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Axborot tahdidlari, yoshlar ijtimoiy ongi, oila instituti, oila psixologiyasi, gender stereotiplari, farzand tarbiyasi, ma’naviy-axloqiy immunitet, axborot xavfsizligi.

Аннотация: В статье рассматривается влияние института семьи и гендерных стереотипов на формирование социальной сознательности молодежи в условиях информационных атак. Усиление информационных и идеологических воздействий современного медиапространства существенно влияет на мировоззрение молодых людей, поэтому формирование их морально-этического иммунитета является актуальной задачей. Анализируются семейная среда, воспитательные подходы родителей и психологические отношения, а также роль гендерных стереотипов в процессе воспитания и их влияние на социальное сознание молодежи. Подчеркивается, что укрепление психологической атмосферы семьи играет ключевую роль в защите молодежи от негативного информационного воздействия.

Ключевые слова: Информационные угрозы, социальное сознание молодежи, институт семьи, семейная психология, гендерные стереотипы, воспитание детей, морально-этический иммунитет, информационная безопасность

Annotation: The article examines the role of the family institution and gender stereotypes in shaping the social consciousness of youth under conditions of information attacks. Various ideological and informational influences in the modern media environment significantly affect young people’s worldview and social awareness, making the development of their moral and ethical immunity a pressing issue. The study highlights the impact of the family environment, parental educational approaches, and psychological relationships, as well as the role of gender stereotypes in child-rearing and their influence on social consciousness. Strengthening the psychological climate of the family is emphasized as a key factor in protecting youth from negative informational influences.

Keywords: Information threats, youth social consciousness, family institution, family psychology, gender stereotypes, child-rearing, moral and ethical immunity, information security.

Kirish. Axborot xurujlari sharoitida yoshlar ijtimoiy ongini shakllantirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy axborot makoni yoshlarni turli ideologik, madaniy va informatsion ta’sirlarga duchor qilmoqda. Shu ta’sirlar ularning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy ongini shakllantirish jarayonini murakkablashtiradi. Shu bois yosh avlodda ma’naviy-axloqiy immunitetni mustahkamlash va ularni salbiy axborot ta’siridan himoya qilish dolzarb vazifa sifatida e’tiborga olinmoqda. Oila instituti va ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi bu jarayonda asosiy rol o’ynaydi. Oiladagi psixologik muhit, tarbiyaviy metodlar va ota-ona bilan bolaning munosabatlari farzandning shaxsiyati va ijtimoiy ongini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu bilan birga, gender stereotiplari ham farzand tarbiyasida va uning jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvorida muhim omil sifatida namoyon bo’ladi.

Zero, davlatimiz rahbari, Shavkat Mirziyoyev, ushbu masalaning dolzarbligini ta’kidlab:

“Biz uchun hech qachon kun tartibidan tushmaydigan eng muhim masala — bu yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, farzandlarimizning to’g’ri shakllanishini ta’minlashdir. Ota-ona va jamiyat e’tiboridan chetda qolgan bola oilaga faqat tashvish keltiradi. Shu bois bola tarbiyasi, yoshlar bilan ishlash biz uchun eng muhim va dolzarb vazifa bo’lishi shart.”

Ushbu so’zlar yoshlar tarbiyasining dolzarbligi va oilaning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi o’rni naqadar muhim ekanligini ochib beradi. Shu munosabat bilan maqolada oila instituti va gender stereotiplarining yoshlar ijtimoiy ongiga ta’siri psixologik jihatdan tahlil qilinadi hamda axborot xurujlariga qarshi ma’naviy-axloqiy immunitetni shakllantirishning dolzarbligi yoritiladi.

Asosiy qism. Oila psixologiyasi yosh avlodning shaxsiyati va ijtimoiy ongini shakllantirishda muhim rol o’ynaydi. Oiladagi psixologik muhit farzandning emotsional barqarorligi, ijtimoiy xulq-atvori va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, mehr-muhabbatga to’la va barqaror psixologik muhit bolaning o’zini baholashini oshiradi, ijtimoiy vazifalarni anglash qobiliyatini rivojlantiradi va turli muammolarni hal qilishda mustaqil qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi farzandning shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Oilaviy munosabatlarning sifatli va barqaror bo’lishi bolaning ruhiy holatini mustahkamlaydi, unga ijtimoiy qoidalar va axloqiy me’yorlarni o’zlashtirishga imkon yaratadi. Shu nuqtai nazardan, ota-ona tarbiyasining maqsadga yo’naltirilgan va ongli bo’lishi yoshlarning axborot xurujlariga qarshi barqaror psixologik immunitetni shakllantirishda ham muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarovalarning Rivojlanish psixologiyasi darsligida shularni takidlashadi, Dj. Boulbi bolalarning emotsional rivojlanishiga e’tibor qaratdi va uning bog’lanib qolish nazariyasi zamonaviy biologik va psixologik ma’lumotlar bilan an’anaviy psixanalitik yondashuvlarni birlashtirdi. Boulbi ta’kidlaydiki, ona bolaga nafaqat organik ehtiyojlarni qondirish, balki ona-bola o’rtasida bog’lanib qolish hissini yaratish orqali emotsional xavfsizlikni ta’minlaydi. Dastlabki oylarda bolaning yiglashi va kulishi onaning g’amxo’rliги va tashqi xavfsizligini anglatadi. Ona bilan bolaning dastlabki emotsional bog’lanishining buzilishi psixik kasalliklar va depressiv holatlarning rivojlanish xavfini oshiradi. Shu sababli, oilaviy psixologik muhitni mustahkamlash yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantirish va axborot xurujlariga tayyorlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shuningdek, E. Frommning bola tarbiyasida ota va onaning roli haqidagi fikrlari ham e’tiborga loyiq. Onaning muhabbati shartsiz bo’lishi lozim: bola mavjudligi uchun yaxshi ko’riladi. Ona hayotga ishonishi va ortiqcha xavotirlanmasligi zarur, shundagina u bolaga xavfsizlik hissini uzatishi mumkin. Otaning muhabbati esa shartli bo’lib, majburiyatlar va tartib orqali, kutilmalarga mos harakat qilib qozoniladi. Bu manbalarga tayangan holda shaxsning rivojlanish bosqichlarida oilaning tarbiyaviy va psixologik roli farzandning axloqiy qarashlari va ijtimoiy ongini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu bilan birga, oiladagi barqaror psixologik muhit va ota-onaning mehribon

yondashuvi yoshlarning turli ijtimoiy va axborot tahdidlariga qarshi immunitetini oshirishga yordam beradi deb hisoblaymiz. [Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarovalarning Rivojlanish psixologiyasi darsligi. Toshkent-2018. 100-101bet]. Shunday qilib, oiladagi psixologik muhit va ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi farzandning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy poydevor vazifasini bajaradi. Ushbu poydevor nafaqat bolaning ijtimoiy ongini shakllantiradi, balki ularni zamonaviy axborot xurujlariga tayyorlaydi va ma’naviy-axloqiy barqarorlikni ta’minlaydi.

Farzand tarbiyasida gender stereotiplari nafaqat ijtimoiy qadriyatlar va an’analarini uzatadi, balki yoshlarning ijtimoiy qarorlar qabul qilish qobiliyatiga va axborotlarni tanqidiy qabul qilishiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Jamiyatda shakllangan an’anaviy gender qarashlar farzandning o’zini anglashiga, ijtimoiy rolini belgilashga va shaxsiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga ta’sir qiladi. Shu sababli, tarbiyada gender stereotiplari ongli boshqarilmasa, bolalar turli ijtimoiy va axborot xurujlariga nisbatan zaif bo’lib qoladi. Xorijiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bolalar ijtimoiy rol va qobiliyatlarni oilaviy va maktab muhiti orqali o’zlashtiradi (Maccoby & Jacklin, 1974). Judith Butler (1990) esa gender performativligi nazariyasi orqali gender stereotiplari bolalarning ijtimoiy rolini faqat biologik asosda emas, balki ijtimoiy va madaniy interaktiv jarayon orqali shakllantiradi. O’zbek olimlari ham farzand tarbiyasida gender stereotiplari va ijtimoiy ongni o’rganishga katta e’tibor qaratganlar. Masalan, Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova va D.U.Abdullayeva ta’kidlaganidek, “oilaviy muhit va ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi farzandning ijtimoiy qarashlarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. [Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarovalarning Rivojlanish psixologiyasi darsligi. Toshkent-2018. 100-101bet]. Shuningdek, ularning tadqiqotlariga ko’ra, gender stereotiplari bolaning ijtimoiy ongini rivojlantirishga bevosita ta’sir qiladi va bolalar ongida ijtimoiy rolni qabul qilish jarayonida asosiy psixologik mexanizm sifatida namoyon bo’ladi. Shu nuqtai nazardan, oiladagi ongli tarbiya va gender stereotiplariga ehtiyotkor yondashish yoshlarning ijtimoiy ongini barqaror shakllantirish va ularni axborot xurujlaridan himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.” [Z.T.Nishonova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarovalarning Rivojlanish psixologiyasi darsligi. Toshkent-2018. 100-101bet]. Masalan, bolalar maktabgacha va boshlang’ich yoshda media orqali ko’rsatiladigan gender stereotiplari bilan tez tanishadi. Agar ota-ona bu stereotiplarni ongli tarzda izohlasa va ijobiy qadriyatlarga yo’naltirsa, farzand axborot xurujlarini tanqidiy qabul qila oladi va salbiy ta’sirlardan himoyalangan bo’ladi.

Oila shaxsning birinchi ijtimoiy muhitidir va uning psixologik rivojlanishida asosiy rol o’ynaydi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, oilada mavjud bo’lgan ijobiy muhit – ochiq muloqot, mehr-oqibat, hurmat va qo’llab-quvvatlash – yoshlarning ijtimoiy va emotsional ongini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ota-onalar bilan sog’lom muloqot yoshlarni axborotni tanqidiy qabul qilishga, yolg’on va manipulyativ kontentni aniqlashga o’rgatadi. Shu bilan birga, farzandning o’zini anglashi, o’z qadrini his qilishi va ijtimoiy qarorlar qabul qilishdagi mustaqilligi oilaning psixologik muhitiga bevosita bog’liq. Salbiy axborot ta’siriga qarshi psixologik himoya. Zamonaviy axborot makonida yoshlar ko’pincha radikal, manipulyativ yoki yolg’on kontentga duch keladi. Bu esa ularning ruhiy barqarorligini buzishi, stereotip va noto’g’ri qadriyatlarni qabul qilishi xavfini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, oila ichidagi ijobiy psixologik muhit yoshlarni quyidagi jihatlar bilan himoya qiladi:

1. Emotsional barqarorlik: Oiladagi mehr va qo’llab-quvvatlash, stress va ijtimoiy bosimga qarshi himoya mexanizmini yaratadi.

2. Kritik fikrlashni rivojlantirish: Ota-onalar bilan muloqot orqali yoshlar axborotni tahlil qilish, manbalarni tekshirish va qarama-qarshi fikrlarni solishtirish ko’nikmalarini egallaydi.

3. Ijtimoiy normativlarni o’rgatish: Oila qadriyatlari va normalari yoshlarni manipulyatsiya va stereotiplarga qarshi immunitet bilan ta’minlaydi. [Jalilova, S.X. Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya. Toshkent, 2020. – 128 b]

Oilaning psixologik muhitini mustahkamlash strategiyalari. Yoshlarni salbiy axborot ta’siridan himoya qilish uchun oilaning psixologik muhitini quyidagi usullar bilan mustahkamlash mumkin:

1. Ochiq muloqot: Farzandlar bilan axborot manbalari, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi kontent haqida muntazam suhbatlar o’tkazish.

2. Qo’llab-quvvatlash: Emotsional yordam va mehr-muhabbat orqali yoshlarning ichki barqarorligini oshirish.

3. Qadriyatlar tarbiyasi: Oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish va ijtimoiy normalarga moslashuvchan fikrlashni shakllantirish.

4. Tanqidiy fikrlashni o’rgatish: Farzandlarni yolg’on va manipulyativ axborotni aniqlashga va tahlil qilishga o’rgatish. [Abdurahmonov, M.S. Ota-onaning yoshlar ijtimoiy ongini shakllantirishdagi roli. Toshkent, 2020. – 55–67 b]

Shunday qilib, oila psixologik muhitining mustahkamligi – yoshlarning salbiy axborot ta’siridan himoyalinishida hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo’ladi. Ijobiy muhit, ochiq muloqot va qo’llab-quvvatlash yoshlarni manipulyatsiya va radikal kontentlarga qarshi psixologik immunitet bilan ta’minlaydi.

Xulosa. Zamonaviy axborot makonida yoshlar turli ideologik, madaniy va informatsion ta’sirlarga duch keladi. Ushbu ta’sirlar ularning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy ongini shakllantirish jarayonini murakkablashtiradi. Shu nuqtai nazardan, yosh avlodda ma’naviy-axloqiy immunitetni mustahkamlash va ularni salbiy axborot ta’siridan himoya qilish dolzarb vazifa sifatida qaraladi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, oila instituti va ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi yoshlarning ijtimoiy ongini shakllantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Oiladagi psixologik muhit, mehr-muhabbat, ochiq muloqot va barqaror tarbiyaviy munosabatlar farzandning emotsional barqarorligini, axloqiy qadriyatlarini va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, ota-onaning ongli va maqsadga yo’naltirilgan tarbiyaviy yondashuvi bolalarni axborot xurujlariga nisbatan psixologik jihatdan tayyorlaydi va ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlaydi. Maqolada shuningdek, gender stereotiplari yoshlarning ijtimoiy qaror qabul qilish qobiliyati va axborotni tanqidiy qabul qilishiga ta’sir qilishi ta’kidlandi. Oiladagi ongli tarbiya va gender stereotiplarga ehtiyotkor yondashish bolalarning ijtimoiy ongini barqaror shakllantirish va axborot xurujlaridan himoya qilishda muhim omil hisoblanadi. Shunday qilib, oilaning psixologik muhitini mustahkamlash, ota-onaning mehribon va maqsadga yo’naltirilgan tarbiyaviy yondashuvi hamda gender stereotiplar bilan ongli ishlash yoshlarning ijtimoiy ongini rivojlantirish va ularni salbiy axborot ta’siridan himoya qilishning asosiy psixologik poydevorini tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar zamonaviy jamiyatda yetuk, barkamol va ijtimoiy ongli avlodni tarbiyalashning ajralmas sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. UZB.RES. Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, 2017. – 64 b.

2. Nishonova, Z.T., Kamilova, N.G., Abdullayeva, D.U., Xolnazarova, M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Toshkent, 2018. – 100–101 b.

3. Jalilova, S.X. Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya. Toshkent, 2020. – 128 b.

4. Abdurahmonov, M.S. Ota-onaning yoshlar ijtimoiy ongini shakllantirishdagi roli. Toshkent, 2020. – 55–67 b.

5. Karimov, R.A., Tursunova, L.M. Oila va tarbiya psixologiyasi. Toshkent, 2019. – 75–88 b.
6. Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna. (2025). The importance of emotional intelligence in the development of socio-psychological adaptation of adolescents. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 4(6), 148–150. Retrieved from <https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/3411>
7. Zulfiya Alisherova. O’smirlarning o’zaro munosabatlaridagi muloqot jarayonida emotsional intellektni o’rni. (2025). *Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal*, 2(4.2) 544-546. [https:// inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/91947](https://inlibrary.uz/index.php/universaljurnal/article/view/91947)
8. Yoqubaliyeva Dilafro‘z Payzidin qizi Sun’iy intellekt – bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilari ta’limni modernizatsiya qilish vositasi sifatida. (2025). *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*, 3(6). <https://doi.org/10.5281/zenodo.15779871>